



**MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi

huquq fani o'qituvchisi 93-769-95-89

Farhod.yangiboyev@list.ru

Annatsiya. O'zbekiston Respublikasida Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy asosiy prinsiplari, vazifalari va o'ziga xos jihatlarini ochib berishga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish.

Kalit so'zlar. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari, Mahalliy boshqaruv, Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv, Mahalliy ijro hokimiyati, Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv

Mahalliy davlat hokimiyat organlarini faoliyatini tashkil etish bilan qonun hujjatlari quyidagilardag iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun;
3. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun;
4. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonun;
5. Boshqa qonunosti hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi bilan siyosiy partiyalar guruhlarining viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarini lavozimiga tayinlashdagi ishtiroki belgilangan edi. Ushbu holat ijtimoiy-siyosiy islohotlarning davomi, mamlakatning davlat-huquqiy va siyosiy tizimini bosqichma-bosqich tadrjijiy



rivojlantirishning natijasi, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tashlangan muhim qadam bo'ldi¹. Mazkur qoida siyosiy partiyalarning viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari lavozimiga tayinlashda ishtirokini kuchaytirishi barobarida, ushbu jarayonni tartiblashtirdi. Siyosiy partiyalarning joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni hal etishdagi rolini, hokimiyatning mahalliy vakillik organlarini shakllantirishdagi ta'sirini kuchaytirish maqsadida Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng tegishli mahalliy Kengashlarga tasdiqlash uchun taqdim etilishi belgilab qo'yildi². Bunday maslahatlashuvlar mahalliy Kengashlarda hokimlar nomzodlarini tasdiqlashda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ixtiloflarning oldini olishga xizmat qildi. Shu bilan birga, hokimning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganida yangi hokimni tayinlash amaliyoti tegishli me'yorlarni belgilash zaruratini ko'rsatmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hokim lavozimiga tayinlanishi bilan tasdiqlash uchun tegishli mahalliy Kengashga kiritiladi va o'sha kuni navbatdan tashqari sessiya o'tkaziladi yoki muayyan muddatga hokim vazifasini bajaruvchi tayinlanadi. Ushbu masalalarni mahalliy Kengashlarning reglamentlarida atroflicha tartibga solinmaganligi, ularni ko'rib chiqishda partiya guruhlarini barobarida, doimiy komissiyalar, deputatlar va aholining ishtirokini murakkablashtiradi.

Nomzod tegishli mahalliy Kengash deputati bo'lsa – hokim, deputat bo'lmasa – hokim vazifasini ijro etuvchi etib tayinlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Hokim etib tayinlashda O'zbekiston Respublikasi partiya guruhlarini bilan maslahatlashuvlar o'tkazilsa, hokim vazifasini bajaruvchi etib tayinlashda maslahatlashuvlar o'tkazilishi shart emas. Hokim vazifasini bajaruvchi deputat bo'lib saylanganidan keyin uning nomzodi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti partiya guruhlarini bilan

¹ Rajabova M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – fuqarolik jamiyati qurishning huquqiy asosi // “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – huquqiy islohotlar asosi” mavzusidagi davra suhbat materiallari. – T., 2007. – B.9.

² O'zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi O'RBQ-88-sonli Konstitutsiyaviy qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi, 2007, – № 4, 161-modda.



maslahatlashuvlar o'tkazishi va uning nomzodini mahalliy Kengash tasdig'iga kiritishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday aniqlikning kiritilishi mazkur jarayonni legitimlashtirish barobarida, Bosh vazir tomonidan hokim nomzodini Davlat rahbariga taqdim etishda partiya guruhleri fikrini inobatga olish zaruratini kuchaytiradi.

Tuman va shahar hokimini tayinlash to'g'risidagi yuqori turuvchi hokim qarorini tasdiqlashda ham partiya guruhleri bilan maslahatlashish belgilanmagan bo'lsa-da, ushbu masalalar ijobiy hal bo'lishi uchun ularning fikrini o'rganish zarur bo'ladi. Chunki viloyatlar va Toshkent hokimi nomzodini tasdiqlashda tegishli mahalliy Kengashlarning vakolatlari cheklangan, ya'ni uch marta Davlat rahbari taqdim etgan nomzodni tasdiqlamasalar, ularni tarqatib yuborilishi belgilangan bo'lsa, tuman va shahar hokimlarini tayinlashda bunday cheklovlar o'rnatilmagan. Demak, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari muayyan hokimni munosib deb topmagunicha, uni tayinlash to'g'risidagi yuqori turuvchi hokim qarorini tasdiqlamasliklari mumkin. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining hokimni tayinlashdagi vakolatlari partiya guruhlariga keng imkoniyatlar beradi. Shu tufayli ayrim tadqiqotchilar taklif etayotgan tuman va shahar hokimlarini tayinlashda tegishli mahalliy Kengashlardagi partiya guruhleri bilan maslahatlashuvlar o'tkazish institutini joriy qilishga ehtiyoj qolmaydi.

Namunaviy va amaldagi reglamentlarda har bir masala dastlab doimiy komissiyalarda ko'rib chiqilishi belgilangan bo'lishiga qaramay, hokim o'rinbosarlarini lavozimlariga tasdiqlash masalasi to'g'ridan to'g'ri sessiya muhokamasiga kiritilmoqda. Zero, hokim o'rinbosarlari muayyan sohani boshqarishga mas'ul bo'lib, ularni lavozimga tasdiqlash masalasi dastlab tegishli doimiy komissiya tomonidan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tartibning o'rnatilishi partiya guruhi va doimiy komissiya bilan hokim o'rinbosari o'rtasida tegishli sohadagi dolzarb muammolar, ularni hal qilish yo'llarining kelishib olinishiga xizmat qiladi. Hokim o'rinbosarlari barobarida, hokimlik devoni va boshqaruv organlarining hududiy bo'limlari rahbarlarini tayinlashda mahalliy kengashlar, ularning doimiy komissiyalari va partiya guruhleri ishtirokini belgilash



maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mazkur organlar hokim va uning o'rinbosarlari tomonidan shakllantirilsa ham bunday tartib ularning deputatlar oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish barobarida, partiyalar guruhlarini boshqaruvdagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlaydi. Hokim va uning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlashda partiya guruhlarining ishtiroki samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish ushbu jarayonlarni demokratlashtirish talablaridan kelib chiqadi. Shu tufayli bunday ishtirokni mahalliy Kengashlarning reglamentlarida aks ettirish, mazkur jarayonni atroflicha huquqiy tartibga solish O'zbekistonda davlat xizmatini tashkil etishning dolzarb masalalaridan biriga aylanadi.

O'zbekiston siyosiy partiyalarining mahalliy bo'limlarida davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qatnashish uchun nomzodlarni tanlash tartib-taomilini yetarlicha shaffof deb bo'lmaydi. Saylovchilarning ovozi uchun kurashayotgan siyosiy partiyalar joylarda partiya liderlarini nomzodini ilgari surish jarayonini hamda bu borada qaror qabul qilish mexanizmlarini yanada ochiq muhokama asosida amalga oshirishlari lozim. Ushbu masalada rivojlangan demokratik davlatlarda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning quyidagi tajribasi e'tiborga loyiq, ya'ni bunda har bir siyosiy partiya parlamentga yoki mahalliy vakillik organlariga bo'lib o'tadigan saylovlardan oldin partiya ichida ochiq raqobat – praymeriz tizimini qo'llaydilar. Bunday amaliyot partiya a'zolari va saylovchilarni, nomzodlarni tanlash va ko'rsatish jarayoniga yanada faolroq jalb etilishiga olib keladi. Oxir-oqibat partiya ichidagi raqobat natijasida siyosiy maydonga yangi g'oyalar va dasturlar hamda yangi liderlar kirib keladi. Shu bois bizning mamlakatimizda ham siyosiy partiyalar nomzodlarni ko'rsatish jarayoniga partiya ichida dastlabki ovoz berish amaliyotini ko'llashlari maqsadga muvofiqdir. O'z navbatida, ushbu jarayon ommaviy axborot vositalari tomonidan keng yoritib borilishi lozim. Bu esa saylovchilarni siyosiy partiyaga bo'lgan qiziqishini orttiradi va partiya ichida kechayotgan jarayonlarning transparentligini ta'minlaydi³.

³ Bekchanov D., Asadov Sh., Nurullaeva M. Sovershenstvovanie deyatelnosti i povыshenie roli mestnykh Kengashey narodnykh deputatov / Analiticheskiy doklad 2015. – Tashkent: PROON, 2015. – S.14.



M.V.Nazukinaning fikricha, mahalliy vakillik organidagi deputatlar ularning muammolarini hal etishda real natijalarga erishmaydigan bo'lsa, albatta, bunday holda ushbu organ fuqarolarning salbiy bahosiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy saylovlarga qatnashish ko'rsatkichlarining kamayishiga olib keladi. Bunda fuqarolar saylovga kelmaslik sababini mahalliy kengashlardan foyda yo'q yoki ular hech narsani hal qilmaydilar, degan vaj bilan izohlaydilar. Boshqacha aytganda, mahalliy kengashlarning dolzarb muammolarini yetarlicha va o'z vaqtida hal etishga harakat qilmasliklari oxir-oqibatda deputatlarning maqomiga va obro'siga jiddiy putur yetkazadi⁴.

M.V.Nazukinaning qayd etilgan fikrini e'tirof etgan holda partiya guruhlarining bugungi kunda saylovchilar oldida nufuzining ancha pastligining sabablaridan biri, bu ularning mahalliy budjetni yoki hududni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda o'z elektoratlarining manfaatlarini ko'zlab faol harakat qilmasliklarida ekanligini ko'rsatib o'tish mumkin. Holbuki, ko'pgina mamlakatlarda mahalliy vakillik hokimiyati organlarida siyosiy partiyalarning ishtiroki asosan mahalliy budjetni ishlab chiqish va shu orqali hududning kelgusi rivojlanish strategiyasini shakllantirishdagi roli bilan belgilanadi. Xususan, Braziliyaning ko'pgina shaharlarida mahalliy budjetni ishlab chiqishda merlar, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorlikda faoliyat yuritadilar⁵.

Yuqorida biz mahalliy vakillik organlarida partiya guruhlarining hokimlarni tayinlash hamda saylovlarda nomzodlarni tanlash borasidagi faoliyatini tahlil qildik. Ta'kidlash mumkinki, partiya guruhlarining mahalliy vakillik organlaridagi faoliyati yana quyidagi yo'nalishlarda ham amalga oshadi:

- mahalliy Kengashlar vakolatlarini amalga oshirishga oid vazifalar;
- elektorat huquq va manfaatlarini himoya qilish oid vazifalar;
- mahalliy ijro organlari faoliyatini nazorat qilishga oid vazifalar;
- siyosiy partiya dasturlarini tatbiq etishga oid vazifalar.

⁴ Nazukina M.V. *Образы и otsenki munitsipальных deputatov v predstavleniyax lokalnykh elit Permskogo kraya // Ars Administrandi (Iskusstvo upravleniya)*. 2017. Tom 9, – № 4. – S. 644.

⁵ Stren, R., & Friendly, A. *Big city mayors: Still avatars of local politics? // Cities*. 2019. Volume 84. – P.174.



Mahalliy Kengashlardagi partiya guruhleri hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, joylarda qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash va Kengash vakolatlari doirasidagi boshqa masalalarni hal qilish borasida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish bilan bir qatorda, nazorat faoliyatini ham amalga oshiradilar.

Amaldagi qonun hujjatlari tahliliga ko'ra bugungi kunda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida deputatlik nazoratining quyidagi shakllaridan foydalanilmoqda:

amaldagi qonun hujjatlarining ijro hokimiyati organlari va uning boshqarma hamda bo'limlari tomonidan ijro etilishini nazorat tartibida o'rganish;

budjet sohasidagi nazorat, jumladan, mahalliy budjetlarni qabul qilish hamda ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqish hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lov stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdor doirasida belgilash;

hokimning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini, shuningdek boshqa mansabdor shaxslarning hisobot va axborotlarini eshitish;

deputatlik so'rovlari, shuningdek siyosiy partiyalarning deputatlik guruhleri so'rovlarini yuborish;

hokimning qarorlarini tasdiqlash, shuningdek hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

aksariyat yuridik adabiyotlarda qayd etilganidek, mansabdor shaxslarni tayinlash yoki ularni lavozimlarga tasdiqlash.

Bizningcha, amaldagi qonun hujjatlarining mahalliy ijro hokimiyati organlari va uning bo'limlari tomonidan ijro etilishi ustidan partiya guruhlarining nazoratini amalga oshirishda asosiy vazifalar quyidagilar:

qonun hujjatlarining ijro etilishida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

qonun hujjatlarining ijro etilishiga to'sqinlik qilayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash;



eng dolzarb hududiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Kengash doimiy komissiyalari tomonidan o'tkazilgan konferensiya, davra suhbatlari va seminarlar, shuningdek fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha olingan axborotni amalga qo'llash;

deputatlarning huquqiy bilim hamda amaliy ko'nikmalari darajasini oshirish; jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdan iboratdir.

Bugungi kunda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda deputatlik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari takomillashib bormoqda. 2014 yil 16 aprel kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq, viloyat, tuman va shahar hokimi tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etishi hamda ular bo'yicha xalq deputatlari Kengashi tomonidan tegishli qarorlar qabul qilishi buning yaqqol dalilidir.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi Qonunning 5 va 8-moddalariga muvofiq deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga, ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovi yuborishga haqlidir.

Deputat so'rovi deputatlik nazoratini amalga oshirishning eng muhim va zaruriy shakllaridan biri ekanligini qayd etmoqchimiz. Chunonchi, tahlillar Toshkent viloyatida aksariyat deputatlar nazoratning deputat so'rovi yuborish shaklidan samarali foydalanayotganini ko'rsatmoqda.

Ayni paytda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalarning muayyan yo'nalishlar bo'yicha ishtirokini samarali yo'lga qo'yish, xususan, mahalliy ijro hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining Kengash



oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini ro'yobga chiqarishning garovidir.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy davlat hokimiyat organlarini faoliyatini tashkil etishga oid qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. RAJABOVA M. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – FUQAROLIK JAMIYATI QURISHNING HUQUQIY ASOSI // “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – HUQUQIY ISLOHOTLAR ASOSI” MAVZUSIDAGI DAVRA SUHBATI MATERIALLARI. – T., 2007. – B.9.
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “DAVLAT BOSHQARUVINI YANGILASH VA YANADA DEMOKRATLASHTIRISH HAMDA MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISHDA SIYOSIY PARTIYALARNING ROLINI KUCHAYTIRISH TO‘G‘RISIDA”GI O‘RQ–88-SONLI KONSTITUTSIYAVIY QONUNI // O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI PALATALARINING AXBOROTNOMASI, 2007, – № 4, 161-MODDA.
3. BEKCHANOV D., ASADOV SH., NURULLAEVA M. SOVERSHEENSTVOVANIE DEYATELNOSTI I POVBISHENIE ROLI MESTNYX KENGASHEY NARODNYX DEPUTATOV / ANALITICHESKIY DOKLAD 2015. – TASHKENT: PROON, 2015. – S.14.
4. NAZUKINA M.V. OBRAZY I OTSENKI MUNITSIPALNYX DEPUTATOV V PREDSTAVLENIYAX LOKALNYX ELIT PERMSKOGO KRAYA // ARS ADMINISTRANDI (ISKUSSTVO UPRAVLENIYA). 2017. TOM 9, – № 4. – S. 644.
5. STREN, R., & FRIENDLY, A. BIG CITY MAYORS: STILL AVATARS OF LOCAL POLITICS? // CITIES. 2019. VOLUME 84. – P.174.